

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI VA  
AHAMIYATI**

**Boboqulova Oydin**

Ilmiy rahbar , Termiz davlat universiteti  
Xorijiy filologiya fakulteti o'qituvchisi

**Qodirov Behruz**

**O'taganov Zarif Xudoynazarovich**

Termiz davlat universiteti  
Xorijiy filologiya fakulteti  
xorijiy til va adabiyot ta'lim yo'nalishi talabasi;  
e-mail:utaganovzarif1@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiyaning tutgan o'rni hamda ta'lim tizimining rivojlanishida boshlang'ich ta'limning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi haqida ma'lumotlar keltirilib o'tiladi.

**Аннотация.** В данной статье обсуждается роль образования в начальных классах в нашей стране и значение начального образования в развитии системы образования информация предоставлена.

**Annotation.** In this article, the role of education in primary classes in our country and the importance of primary education in the development of the education system are discussed information is provided.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy texnologiyalar, ta'limning maqsadi, tarbiya maqsadi, buyuk allomalarimiz so'zlari, ta'lim va tarbiya.

**Ключевые слова:** Современные технологии, цель образования, цель образования, слова наших великих учёных, образование и образование.

**Key words:** Modern technologies, the purpose of education, the purpose of education, the words of our great scholars, education and education.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga

tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Hozirgi XXI asr zamonaviy ilm fan va texnologiyalar asrida o'sib borayotgan har bir avlodimiz bu imkoniyatlardan qisman foydalana oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek bu vositalar ommaviy va ijtimoiy so'zlashuv jarayoniga aylanib bormoqda. Va shu bilan birgalikda uzog'imizni yaqin qilgani, turgan joyimizdan ko'chilik ishimizni bajarayotganimiz bu hayotimizga yengillik bergani haqiqat. Ammo bir qancha kuzatishlar natijalaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ayrim yosh avlodlarida bu ommaviy axborot vositasi o'z o'rnida foydalanmaslik turli salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Shu o'rinda shuni ayta olamizki har bitta inson o'zini o'zi idrok qila olishi bu muammoga kichik bir yechim bo'lsa ham yaratgan bo'lar edi. Birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik», - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga

muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan [anatomik](#), fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish Tarbiyaning umumiy vazifalari: jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga hos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli hil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir. Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi [va aloqadorligi](#), bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi. Ozbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi.

Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomillida ta'lim va tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida so'z boradi. "Fozil odamlar shahri", " Baxt-saodatga erishuv to'g'risida



" , " Imlarning kelib chiqishi " kabi asarlarida olimning tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilim egallashga dav'at etadi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo'lmagan kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni yengildan og'irga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi, bilim berishda, bolani qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olishi, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish kerakligini uqtiradi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'quvchilar zimmasiga yuklatilgan

### **XULOSA**

Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishiga imkoniyat yaratadi. Shu sababli keyingi davrda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini ko'ngilli uyushtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Sinf jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning hajmi, asosiy yo'nalishlari, mazmuni har bir yosh bosqichida o'quvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga mos kelishi lozim.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishi kerak. Maktabda bashlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni olib borish, uni yo'lga qo'yish sinf rahbari yoki tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari tomonidan uyushtiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T: «O'zbekiston», 2009, 15-bet.

2. Mavlonova R.A., To'raeva O.T., Holiqberdiyev K.M. Pedagogika, T., O'qituvchi, 2010

3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ibragimova G., To'raqulov X.A., Alibekova R. T.: «Cho'lpon» 2004.

4. S. Ochilov., "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari"